



TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

1991-yildan
chiqa boshlagan

2019-yil. 3-son

ISSN 2010-5584

adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz



Bahor fasli borliqqa betakror go'zallik, zaminga yashillik tuhfa etsa, ayol mehr-u sadoqati va nafosati bilan hayotga harorat, umrga mazmun baxsh etadi. Ayollari ardoqda, mudom elning e'zozida bo'lgan jamiyatda esa barkamol avlodlar kamol topadi.

Mamlakatimizda mo'tabar ayol zotiga ko'rsatilayotgan hurmat va e'tibor namunasini 8-mart - Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan Prezidentimiz qaroriga binoan a'lo xulqi, yorqin iste'dodi, o'qishdagi muvaffaqiyatlari hamda ta'lim, fan, adabiyot, madaniyat, san'at, sport sohalarida va jamoatchilik faoliyatida erishgan alohida yutuqlari uchun Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlangan 28 nafar qiz timsolida ham ko'rish mumkin.

Ushbu sonda



Dolzarb
mavzu

Baxtim shul - o'zbekning
Zulfiyasiman!

6- bet



Dars -
muqaddas

Ozodlik timsoli

8- bet



Tahlil

Mavlono Lutfiy ismini
bilasizmi?

23- bet



Tadqiqotlar

She'r tahlilida
xronotopning o'rni

30- bet



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.
2019-yil. 3-son.

1991-yildan chiqib kelmoqda.

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ПРЕПОДАВАНИЕ
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING | SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Bosh muharrir:
Bahodir JOVLIYEV

Tahrir hay'ati:
Sherzod SHERMATOV
Dilshod KENJAYEV
Maqsudjon YO'LDOSHEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Nargiza RAHMONQULOVA
Sirojiddin SAYYID
Mamatqul JO'RAYEV
Nasirullo MIRKURBANOV
Jabbor ESHONQULOV
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinbosari)
Nilufar NAMOZOVA

Jamoatchilik kengashi:
Muhammadjon ALIYEV
Ergesh ABDUVALITOV
Manzura DADAXO'JAYEVA
Ehson TURDIQULOV

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Nashr uchun mas'ul:

Zuhra HASANOVA
Feruz MUSAYEVA

Tahririyat manzili:
100011, Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
e-mail: til_adabiyot@mail.uz
veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnalidan ko'chirib bosilgan maqolalar «Til va adabiyot ta'limi»dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnalida nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga 04.04.2019-yilda topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84¹/₈. Shartli bosma tabog'i 6,0. «Times» gamiturası. 10, 11 kegl. «NUR ZIYO NASHR» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent sh. Mirobod tum.,
Matbuotchilar ko'chasi 32 uy, Buyurtma
Adadi: 6500 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

MUNDARIJA

AZIZ VA YAGONAMSAN, JONAJON O'ZBEKISTONIMI		3
DOLZARB MAVZU		
Vazira Ibrohimova. Obrazlardan iborat olam		3
DARS – MUQADDAS		
Feruz Abdusalomova. Ozodlik timsoli		8
METODIK TAVSIYA		
Gulalal Berdaliyeva. Ertaklar ko'magida bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatish		10
Muxtabar Karimova. Talabning tashrif qog'ozlari		12
Ikrumjon Saydamatov. Chet til o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasi		13
ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR		
Adiba To'raxo'jayeva, Zulayxo Mirzarahimova. "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari"ni o'rgatishda keys-stadi metodidan foydalanish		15
Shahlo Oshiqova. Interfaol usullar yordamida mustahkamlaymiz		17
Sumbula Matmurotova. Tarqatma material qanday tayyorlanadi?		19
Ayimxon Eshniyazova. Badiiy uslub va uni o'qitishda idrok xaritasi		20
TAHLIL		
Muzaffar Mamatqulov, Umid Egamov. Mavlono Lutfiy ismini bilasizmi?		23
Nigora Jo'rayeva. Roziy – yaxshi xulqlar bayroqdiri		24
Feruz Jabborova. "Sayohatnoma"larda ma'rifatparvarlik g'oyasining poetik tahlili		25
Dilfuza Zaripova. Ta'limiy-didaktik asarlarning qiyosiy-tipologik tahlili		27
Oqila To'raqulova. Analitik tafakkur va kitobxonlik madaniyati		29
TADQIQOTLAR		
Qahhorjon Yulchiyev. She'r tahlilida xronotopning o'rni		30
Laylo Sharipova. Folklor va uslub (Usmon Azim ijodi misolida)		31
Xurshid Mamatqulov. Pedagoglarning xorijiy tillar bo'yicha kasbiy kompetentligini axborot-metodik ta'minot asosida rivojlantirish yo'llari		34
Dilshod Xursanov. Zamonaviy she'r iyatda badiiy vaqtning obrazli ifodalari		36
Mansurbek Babadjanov. O'zbekcha frazemalarning qoraqalpoq tilida leksemalar bilan ifodalanishi		39
Matluba Axmedova. Xorijiy til bo'yicha kasbiy kommunikativ kompetensiyani shakllantirish		40
To'lqin Allayorov. Monologik va dialogik nutqda imperativ konstruksiyalarning qo'llanishi		43
KICHIK TADQIQOT		
Dilfuzabonu Avazova. "Bunchalar buyuksan vafu shevasi..."		45
Nuriddin O'ktamov. Hol momo va uning o'g'illari haqida ertak		48
ПРИЛОЖЕНИЕ		
МЕТОДИКА. ОПЫТ		
Анжелика Шилова. «Без Родины дышать бы не могла я...»		1
Марина Ахмадеева. Повторение и обобщение по теме «Глагол»		3
Аль-Мария Бабарахимова. Развитие речевой компетенции на материале бытовой лексики по теме «Погода»		5
АКТУАЛЬНОЕ СЛОВО ДНЯ		
Динара Зайнутдинова, Маргарита Бульчева. Воспитывать словом и делом		9
ЯЗЫКОЗНАНИЕ		
Махмуд Равшанов. Проблема разграничения между когнитивной лингвистикой и смежными науками		11
Наргиза Хамидова. Антропоцентрический принцип фразеологических репрезентаций мира во французской прессе		13
ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ		
Замира Нуржанова. Особенности графики древнерусской рукописной книги		16
Юлия Исаева. Изучение позднего творчества Н.С.Лескова в вузовской аудитории		17
НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ		
Евгений Малиновский. Замечания об использовании тюркских заимствований в русскоязычной художественной литературе Узбекистана		20
ИЗУЧАЕМ ИНОСТРАННЫЕ ЯЗЫКИ		
Мукаддасхон Огай. Использование мобильных приложений в преподавании английского языка в начальной школе		23
Бекенбауэр Реймов, Айшолпан Ниязова. Важность учета компонентного состава при усвоении английских фразеологизмов		25
СОВРЕМЕННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ		
Гулноза Раджабова. Инновационные методы оценивания лексической компетенции		27
СВЕТ НЕГАСНУЩИХ ИМЕН		
Гулнора Хидирова. Уроки жизни Чингиза Айтматова		29
ВНЕКЛАССНАЯ РАБОТА		
Гулнора Ахунова. Архитектурные памятники – наследие веков		30

TIL VA ADABIYOT
TA'LIMI

jurnali

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining Filologiya va Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.



Muzaffar MAMATQULOV,
Umid EGAMOV,
filologiya fanlari nomzodlari

MAVLONO LUTFIY ISMINI BILASIZMI?

Mumtoz shoirlarimiz ismi shariflari, ularning lug'aviy ma'nolari, hayot yo'llari haqidagi ma'lumotlar ilm uchun va birinchi navbatda, ularning vorislari – yosh avlod uchun mo'tabardir. Jumladan, ismi noma'lum bo'lib ke- layotgan Mavlono Lutfiy hayoti haqidagi ma'lumotlar ham.

Alisher Navoiyning she'riyatdagi ilk ustoz, unga oq yo'l tilab, ilk g'azaligayoq tan bergan kishi Mavlono Lutfiydir. Daho shoirimiz bu kishi haqida "Majolis un-nafois" va boshqa asarlarida uch-to'rt marotaba ma'lumot bergan va uni "Malik ul-kalom", ya'ni "Badiiy so'z podshosi" deb sharaflagan.

Chunonchi, "Majolis un-nafois" asarida: "Mavlono Lutfiy o'z zamonasining malik ul-kalomi erdi. Forsiy va turkiyda naziri yo'q erdi. Ammo turkiyda shuhrati ko'prak erdi va turkcha devoni ham mashhurdir. Va mu-taazzir ul-javob matla'lari bor. Ul jumladin biri budurkim:

*Nozukluk ichra belicha yo'q tori gesuyi,
O'z haddini bilib, belidin o'tturur kuyi.
Yana biri bukim:
Sayd yetti dilbarim meni oshufta sochdin,
Soldi kamand bo'ynuma ikki qulochdin.*

Va Mavlono "Zafaroma" tarjimasida o'n ming baytdin ortuqroq masnaviysi bor. Bayozg'a yozmag'on uchun shuhrat tutmadi. Va lekin forsiyda qasidago'y us-todlardin ko'pining mushkul she'rlarig'a javob aytibdur va yaxshi aytibdur. To'qson to'qquz yashadi. Va oxiri umrida radifi "oftob" she'ri ayttikim, zamon shuarosi barcha tatabbu' qildilar. Hechqaysisi matla'ni oncha ayta olmadilar...

Mavlono qabri shahr navohisida – Dehi Kanordakim, o'z maskani erdi, andadur".

Alisher Navoiyning "Holoti Sayyid Hasan Ardasher" manoqibida bu tabarruk zotning Lutfiy ijodidan uchta baytni yod aytib yurgani qayd etilgan.

Keyingi yillarda Mavlono Lutfiyning tavallud joyi, va-foti yili, faoliyati haqida ko'plab yangi ma'lumotlar davriy matbuot va kitoblarda yoritildi.

Birinchi yangilik shundaki, sobiq Dehi Kanor qish-log'ining hozirgi nomi Nangoboddir. Bu qishloq Hirotdan 25 kilometr masofada bo'lib, Xalqaro Bobur fondi raisi Zokirjon Mashrabov tashabbusi bilan 2007-yilda Nangobod yaqinidagi yaydoq yerda xuddi yashil orol-dek daraxtzor maskandan Mavlono Lutfiy qabr toshi topilgan. O'sha yili mazkur fond rayosati qaroriga mu-

vofiq, Zokirjon Mashrabov boshliq hay'at vakillari bu makonda O'zbekistonda tayyorlangan sag'ana toshi va maqbarani bunyod etishgan.

Ikkinchi yangilik shuki, filologiya fanlari nomzodi Vahob Rahmonov "Fan va turmush" jurnalining 2000-yil 4-sonida "Lutfiy ismi – Umar" nomli maqola e'lon qilgan. Muallif maqolada Po'latxon Qayumovning "Tazkirayi Qayyumiy" kitobidan Mavlono Lutfiy haqidagi quyida-gi ma'lumotlarni keltirgan: "Lutfiy Alisher Navoiy ila musohaba etmish, Hirot shahrida tug'ilmish shoiridir... O'z zamonasining jahongashta olim shoiridir. Boshda temuriylardan Shohrux mirzoning saroyida (1404–1446) xizmatda bo'ldi. Noma'lum sababga ko'ra bundan ketib, Saroy shahrida turdi. Bir ozdan so'ngra Ozarbayjonga keldi. Qorabog' viloyatlarida sayohat etdi. Nihoyat bu uzoq sayohatidan O'rta Osiyoga qaytib keldi... So'ngra hayotini darveshona o'tkarib, Hirot shahriga yaqin bir qasabada vafot etdi".

Maqolada Lutfiy ijodidan uning Saroyda, Qrimda, Qorabog'da bo'lganligiga oid baytlar keltirilgan.

Tazkirada Po'latxon Qayumov Lutfiy ismini aniqlov-chi o'rnini topgan: "Mavlono Lutfiy o'z nomini tubandagi muammo bilan ko'rsatadur:

*Ko'ray desang agar istab otimni,
Imoratni buzub, otni chiqorg'il.*

"Imorat" so'zini buzib, "o" bilan "t"ni olsak, ot chiqadur. Qolmish harflarni yozsak, Umar bo'ladurki, Lutfiyning nomi Umar bo'lib chiqadur".

Ko'rinadiki, Po'latxon Qayumov biz ko'rmagan va bilmagan manbalarni ko'rgan, o'qigan va Mavlono Lutfiyning ismi Umar ekanligini aniqlashga muvassar bo'lgan.

Xalqaro Bobur jamoat fondi raisi Zokirjon Mashrabov Xitoy safaridan olib kelgan, mashhur uyg'ur hofizi va musiqashunosi Ismatulloh ibn Ne'matulloh Mo'jiziyning "Tavorixi musiqiyun" ("Musiqashunoslik tarixi") asarini olim Vahob Rahmonov 2010-yilda nashrga tayyorlab, hozirgi o'zbek tiliga tabdil etib, "Mumtoz so'z" nashri-yotida chop ettirdi. Xalqaro Bobur fondi tamg'asida bosilgan bu kitobda Mavlono Lutfiy haqida juda ko'p va yangi-yangi ma'lumotlar berilgan. Bunday yangiliklarni quyidagicha tasnif etishimiz mumkin:

birinchidan, Mavlono Lutfiyning kitob muallifi o'z davrining mashhur cholg'uchisi, bastakor ustoz sifatida taqdim etadi;

ikkinchidan, Mavlono Lutfiyning vafot etgan yilini aniq ko'rsatadiki, bundan to'qson to'qqiz (hijriy hisobda) olib tashlansa, uning tug'ilgan yili ma'lum bo'ladi;

uchinchidan, Mavlono Lutfiy shaxsining serqirraligi ma'lum bo'ladi.

“Tavorixi musiqiyun”dan iqtibos: “Musiqachilarning o'n beshinchi piri Hazrat Mavlono Lutfiydur. Bu aziz ushbu Mo'g'ulistondin (Uyg'uriston – M.M.) erdilar. Olimliqda hazrati Abu Nasr Forobiydek, hakimlikda Ibn Sinodek, shoirliqda hazrati Amir Nizomiddin Alisher Navoiydek, mug'anniylikda taxi Qodirxondek erdilar. Bu azizni bilmaydurgon olim yo'q erdi. Zamonining allomasi erdilar. Besh yuzdin to'laroq olim va qorilar shogird bo'lib o'qudilar va olim bo'ldilar. Ikki yuzcha kishi musiqiy fanida kamolot, mahorat ko'rsatdilar. Yigirmadan ortuq kitob tasnif qildilar... Ta'rixij hijriyning sakkiz yuz yetmish sakkizida vafot bo'lub ketdilar”.

Ushbu faktlardan son-sanoqdagi mubolag'a pardasi olib tashlanganda ham Mavlono Lutfiy shaxsining naqad yirikligi va buyukligini aniq tasavvur etish mumkin.

U kishining vafot yillari – 878 dan 99 ni olib tashlasak, Mavlono Lutfiyning tavallud sanasi 779-yil kelib chiqadi. Demak, Mavlono Umar Lutfiy 1376-yili tug'ilib, 1473-yilda vafot etgan. Bu bizning ilmiy adabiyotlardagi sanalarga yangicha aniqlik kiritadi.

Xullas, ushbu yangiliklar Lutfiyning Shohrux mirzo saroyida uzoq muddat xizmat qilgani, musiqqa, she'riyat va din ilmida Hirotda mashhurligi, Saroy shahrida bo'lgani va uzoq muddat sayohat qilib, Ozarbayjon, Qorabog', hozirgi Qozog'istonda bo'lgani, ona yurtiga qaytib, darveshona yashagani hamda tavallud va vafot etgan yilining aniqlangani haqidagi ilmiy-adabiy dalillardir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 9-jild. Majolis un-nafois. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. 330-bet.
2. “Fan va turmush” jurnali. 2000-yil. 4-son, 11-bet.
3. Ismatulloh ibn Ne'matulloh Mo'jiziy. Tavorixi musiqiyun. – Toshkent: “Mumtoz so'z” nashriyoti, 2010. 29–30-betlar.

Nigora JO'RAYEVA,

Xo'jand davlat universiteti o'qituvchisi

ROZIY – YAXSHI XULQLAR BAYROQDORI

Inson yaralibdiki, uning ma'naviy kamoloti hamma davr va zamonlarda ham muhim masalalardan hisoblangan. Qadimda va o'rta asrlarda komil inson haqidagi ta'limot xalqning orzu-armonlari, fikr-u aqidalarini aks ettirgan bo'lib, maqsad insonning ma'naviy tarbiyasi va go'zal xulqi jamiyat manfaati uchun foyda keltirishi hamda uning botiniga insoniy xislatlar – go'zal fazilatlarini singdirishda bo'lgan.

Sharq axloqshunosligida raylik buyuk mutafakkir Abubakr Muhammad ibn Zakariyo ibn Yahyo ar-Roziyning (865–925) axloqiy qarashlari falsafasi alohida o'rin tutadi. Dunyo ilm ahli Zakariyo ar-Roziyni alkimyogar, tabib, faylasuf sifatida taniydi va e'tirof etadi. Olim bu sohalarda ko'plab asarlar yozgan bo'lib, Qiftiy ularning soni 133 ta, Ibn Nadim 164 ta, al-Beruniy 184 ta, Abu Usaybiya 234 ta, A.B.Xalidov bo'lsa, 260 ta, deb ma'lumot beradi. [1: 155]

Alkimyogarlik ar-Roziyning yoshligidan sevgan mashg'uloti bo'lgan. U o'zi yashagan shaharning sarrofi (sof tangalarni qalbakisidan ajratuvchi) ham edi. Uzoq vaqt bu ish bilan mashg'ul bo'lishi va ko'plab tadqiqotlar, kimyoviy reaksiyalarni o'tkazishi natijasida ko'zi xiralashib boradi.

Aliasg'ar Xalabiyning aytishicha: “Tabiblik yo'q edi, Gippokrat uni vujudga keltirdi, o'lik edi, Jolinus tiriltirdi, parokanda edi, Roziy uni to'pladi, kamchiliklardan xoli

emasdi – Ibn Sino uni mukammal qildi” [2: 5]. Shuning o'zi Roziyning tabib sifatida tanilganining ishorasi. Ma'lumotlarga qaraganda, “...meditsina tarixida birinchi bo'lib “kasallik tarixi” yozishni Roziy joriy qilgan. Uning o'zi har bir bemor uchun alohida “kasallik tarixi” tuzib, bemorning kasalxonaga tushgan kundan boshlab ahvoli, undagi o'zgarishlar va kasallikning kechish jarayonini juda aniq va sinchiklab yozib borardi” [2: 12].

Roziy tabib sifatida bevosita odamlar bilan doimiy muloqotda bo'lar ekan, insonning nafaqat jismi, balki ruhini ham davolash maqsadga muvofiqligini ta'kidlab o'tadi. Roziy aqidasi, tabobat ham, zakovat va ilm ham inson uchundir. Olamning oliy mavjudoti bo'lmish insonning yoshligidan ruhini tarbiyalab borish zarur va natijada, u o'z ruhini tartib-intizom doirasida saqlab turadi. Uning bunday axloqiy qarashlari «Falsafiy hayot tarzi», «Ruhiy tabobat», «Baxt va farovonlik belgilari», «Tanlangan asarlar» singari kitoblarida aks etgan. Ar-Roziy axloqshunoslik fanini insondagi yaxshi fazilatlarini tarbiyalash, yomon odatlarni yo'qotish yo'llari va usullari haqidagi fan deb biladi: axloq va ruhiy tarbiya kishini aql-u farosat bilan ish ko'rishga, ya'ni har bir ishda odob doirasidan chiqmaslikka o'rgatadi. Uning asosiy maqsadi tabib sifatida odamlarning jisminigina emas, faylasuf sifatida ruhini ham davolashdir.